



DISTINCTIVE FEATURES OF YOUTH LEGAL CULTURE

Jumagul Dadaboeva

candidate of Legal Sciences, associate professor

Fergana State University

Uzbekistan, Fergana

ABOUT ARTICLE

Key words: youth, civil society, human interests, legislative competence, legal culture, human rights and freedoms.

Received: 20.10.24

Accepted: 22.10.24

Published: 24.10.24

Abstract: in the process of reform of the development of civil society in Uzbekistan, it is important to study the experience of the creation of the foundations of a similar Society in different countries of the world, the formation of the economic, socio-political and legal foundations of reforms in this area, theoretical developments on them. Because, these positive aspects of civil society that are important to humanity (principles and living environment) are manifested as an important experience in the reforms of human rights and freedoms in countries that are going through the transition and moving towards development towards a legal state. The article explores the peculiarities of youth legal culture scientifically and legally researched.

YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jumagul Dadaboyeva

yuridik fanlari nomzodi, dotsent

Farg‘ona davlat universiteti

O‘zbekiston, Farg‘ona

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: yoshlar, fuqarolik jamiyati, inson manfaatlari, qonun ustivorligi, huquqiy madaniyat, inson huquq va erkinliklari.

Annotatsiya: O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish islohotlari jarayonida jahondagi turli mamlakatlarda shu kabi jamiyat asoslarining yaratilish tajribasi, bu sohadagi islohotlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslarining shakllantirilishi, ularga doir nazariy ishlanmalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, fuqarolik jamiyatining bu

insoniyat uchun muhim bo'lgan ijobiy jihatlari (tamoyillari va va yashash muhiti) o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash va huquqiy davlat sari rivojlanish sari intilishiga doir islohotlarida muhim tajriba sifatida namoyon bo'ladi.

Maqolada yoshlar huquqiy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan o'rganilgan va huquqiy jihatdan tadqiq etilgan.

ОСОБЕННОСТИ МОЛОДЕЖНОЙ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ

Джумагул Дадабоева

кандидат юридических наук, доцент

Ферганский государственный университет

Узбекистан, Фергана

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: молодежь, гражданское общество, интересы человека, верховенство закона, правовая культура, права и свободы человека.

Аннотация: В процессе реформ развития гражданского общества в Узбекистане важное значение приобретает опыт создания основ аналогичного общества в разных странах мира, формирование экономических, социально-политических и правовых основ реформ в данной сфере, изучение теоретических разработок по ним. Потому что эти важные для человечества положительные аспекты гражданского общества (принципы и среда обитания) представляют собой важный опыт в реформах, направленных на обеспечение прав и свобод человека в странах, которые переживают переходный период и стремятся к развитию правового государства. В статье научно исследованы и юридически обоснованы особенности правовой культуры молодежи.

KIRISH

Jamiyat huquqiy madaniyatining yuqori darajada bo'lishi aholining mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligini, uning belgilab olingan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishishga qiziqishi va mas'uliyatini, yuz berayotgan o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usini oshishiga yordam beradi, muhim qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolarning ishtirokini jiddiy kengaytiradi. "Davlat va jamiyat boshqaruvi murakkab jarayon bo'lib, uni tashkil etish va boshqarish bo'yicha turli xil modellar, boshqaruv shakllari hamda yo'llari ishlab chiqilgan. Insoniyat tomonidan ming yillar davomida "taraqqiyparvar davlat", "komil jamiyat" barpo etish g'oyasi ilgari surilgan. Shu asosda o'tgan asrdan boshlab jahon amaliyotida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini

tashkil etish bo'yicha amaliyot bir necha davlatlar tajribasida qo'llanilib, amaliyotda o'z samarasini berdi. Bugungi kunda esa o'z suverenitetiga ega bo'lgan ko'pgina mamlakatlar uchun bunday yo'l eng maqbul maqsadga aylandi. Natijada ko'plab davlatlar huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish asosida yuqori taraqqiyot sari odimlamoqda"[1-3].

Mustaqillikka erishganimizdan keyin bozor iqtisodiyotiga asoslangan mustaqil demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlarini, huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi hamda mamlakatimiz barcha fuqarolari uchun qonun oldida tenglik ta'minlanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish strategik maqsad sifatida belgilangan. Shuningdek mamlakatimizning eng muhim ustuvor vazifalaridan biri sifatida yoshlarning kelajagi, ularning ta'lim-tarbiyasi, huquqiy savodxonligiga alohida ahamiyat berila boshlandi.

ASOSIY QISM

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Yuksak rivojlangan demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan har bir davlatning vazifasi o'z fuqarolarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishdan iborat bo'ladi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishda huquqiy tarbiya asosiy o'rinni egallaydi. Shu sababdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zining barcha chiqishlarida huquqiy madaniyatning ahamiyatiga, uni yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratadi.

“Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi farmoni qabul qilinib, unda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari sifatida aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!” degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish belgilab berildi”[2].

Yuridik adabiyotda huquqiy madaniyatning turlari ularni ifodalovchilarga qarab farqlanib, ular jamiyatning huquqiy madaniyati, shaxsning huquqiy madaniyati, kasb egalari (professional) huquqiy madaniyati sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatning huquqiy madaniyati – bu insoniyat tomonidan huquq sohasida to‘plangan va jamiyatning huquqiy voqeligiga mansub bo‘lgan qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi umumiy madaniyatning qismidir. Shaxsning huquqiy madaniyati – bu har bir kishining o‘z faoliyatida va huquqiy ongida sub’yektiv tarzda shakllangan huquqiy bilim, ya’ni amaldagi huquqqa nisbatan munosabatni ifodalovchi tasavvurlar, qarashlar va tuyg‘ular yig‘indisida namoyon bo‘ladi.

Huquqiy madaniyat ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish asnosida siyosiy, milliy, axloqiy va estetik madaniyatlar bilan birgalikda ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur tushunchani, uning tarkibiy qismlarini va vazifalarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy madaniyat – bu jamiyat hayotiga huquqni sifatli tatbiq etishdir. U kundalik turmush muammo va masalalarini hal etishda huquqiy imkoniyatlardan foydalanishda, halq ehtiyojlarini qondirishda o‘ziga xos bir barometdir. Huquqiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida jamiyatni ongli ravishda boshqarishni, o‘z oldimizga qo‘ygan dasturiy vazifalarni amalga oshirishda, insonlarning mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarning tub mohiyatini to‘laqonli anglagan holda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish uchun hamjihatlikda faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

“Huquqiy madaniyatning eng muhim jihati qonunlarni bilish, huquqiy me’yorlardan xabardor bo‘lishdangina iborat emas, balki qonunlarga itoat etish, bo‘ysunish, ularga qat’iyan amal qilish, o‘z faoliyatini qonunlar asosida yurgizishdir”[3]. Huquqiy madaniyat qonunga hurmat, uning odilligiga ishonch qanoat hosil qilishdir. Huquqiy madaniyat qonunlarni ko‘rko‘rona hurmat qilish emas, balki uning xalqparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik mazmun-mohiyatiga to‘la tushunib etish, bunga shak-shubhasiz ishonch hosil qilishdir. “Huquqiy madaniyat unga va umuman madaniyatga qonun hujjatlari ham, mansabdor shaxslar, muassasalar va fuqarolar xulq-atvori, faoliyati xam albatga mos kelishini talab qiladi, o‘z navbatida huquqiy madaniyat ko‘p jihatdan huquqiy tizimning o‘zi bilan, huquqning hamma tarmoqlari va me’yorlari, huquqiy muassasalarning ishlash amaliyoti bilan belgilanadi”[4-164]. Ayni vaqtda, huquqiy madaniyatning mazmuni ko‘p jihatdan huquqiy tizim, huquqiy tamoyillar, huquq tarmoqlari va normalari majmui bilan belgilanadi. Qonunchilikning takomillashuvi va qonuniylikning mustahkamlanishi, jamiyat va shaxs huquqiy ongini mustahkamlaydi. Huquqiy madaniyat darajasi jamiyatda qaror topgan huquqiy qadriyatlar ko‘lami, ularning omma orasida keng tarqalganligi hamda ular tomondan ixtiyor erkinligi, axloqiy tanlov tamoyili asosida o‘zlashtirilganligi bilan o‘lchanadi. Har bir alohida olingan insonning huquqiy madaniyati uning huquqiy qadriyatlarni, qonunlar mazmunini

o‘z qalbi, shuuriga qanchalik ma’naviy-axloqiy mezonlar uyg‘unligida singdirganligi bilan belgilanadi.

Islohotlar ko‘lamidan kelib chiqqan holda, yoshlar ongida huquqiy madaniyat ko‘nikmasini rivojlantirishda umummilliy g‘oyada belgilab berilgan milliy qadriyatlarimizga asoslangan ta’lim-tarbiya bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirokini ta’minlash ham samarali natijalar berishi shubhasizdir.

O‘z huquqini biladigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil va ongli munosabat bilan yondoshadigan, shaxsiy manfaatini mamlakat va halq manfaati bilan uyg‘un holda ko‘radigan erkin, bilimli va barkamol professional kadrlarni tarbiyalash vazifasi yangi O‘zbekistonni barpo etishdagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Yoshlarga huquqiy tarbiya berishdan asosiy maqsad har bir yosh huquqiy madaniyatni o‘zlashtirib olishiga erishishdan iboratdir. Huquqiy madaniyat shaxs, jamiyat va davlat rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatidir. Jamiyatga nisbatan huquqiy madaniyat yuridik qadriyatlar va me‘yorlar, huquqiy institutlar, huquqiy ong va xulq-atvor birligining sifat xususiyatini ifodalaydi. Shaxsga nisbatan esa u atrof dunyoni idrok etadigan o‘ziga xos “huquqiy qonun” bo‘lib, u huquqiy voqelikni o‘zlashtirishining mezoni sifatida gavdalanadi.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini o‘rganish jamiyatimizning kelajakdagi huquqiy holatining istiqbollarini baholashga imkon beradi. Chunki shaxs qaror topib borayotgan davrda uning qadriyatlarga munosabati shakllanadi, huquqqa ijobiy va salbiy munosabat vujudga keladi, faol yoki passiv ijtimoiy-huquqiy xulq-atvorga qaratilgan yo‘l-yuriqlar vujudga keladi. Nihoyat, huquqiy tarbiyaning samaradorligi tarbiya ob’ektining ahvoli to‘g‘risidagi bilimlarning chuqurligiga va darajalanganligiga muvofiq keladi. Tarbiya ob’yekti, shu o‘rinda - yoshlarning ahvolini uning huquqiy madaniyati ko‘rsatib beradi.

Yoshlarning huquqiy madaniyati voqelikning turli tomonlari va sohalarini aks ettirish bilan huquqiy munosabatlarni aks ettiradi, huquqiy me‘yorlar, g‘oyalar, qarashlar esa aks ettirish predmeti bo‘ladi. Yoshlarning huquqiy madaniyatini bunday tushunish uning ayrim tomonlarini ularni vositalovchi aloqalarsiz va butunning o‘ziga xos xususiyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda bosqichma-bosqich yoritib boradi. Bu o‘rinda huquqiy madaniyat yoshlarning ijtimoiy-huquqiy faoliyati jarayonida vujudga kelishini, ijtimoiy ong shakli ekanini va huquqning oddiy ongda bevosita aks etishidan farqli o‘laroq, ijtimoiy ongni tushunishning dunyoqarash bilan bog‘liq unsurlarini ozmi-ko‘pmi tartibga solgan holda ifodalashini hisobga olish muhim. Bu unsurlar, huquqning muayyan tarixiy davrdagi ijtimoiy qadr-qimmatinigina emas, shu bilan birga huquqiy tizimning g‘oyaviy mohiyatini ham aks ettiradi. Shuning uchun ham yoshlarning huquqiy

madaniyatini tadqiq qilish va ta'riflash davlat va huquq taraqqiyotining tarixiy qonuniyatlarini ilmiy bilishga tayanmog'i kerak.

Yoshlarning huquqiy madaniyati tushunchasini ushbu ijtimoiy hodisaning statik holati va dinamikasi nuqtai-nazaridan ko'rib chiqish ma'lum darajada qiziqarli. Huquqiy madaniyatning statik holatini ta'riflaganda, eng avvalo, yoshlar huquqiy madaniyatining rivojlanish darajasini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va jarayoni bilan chambarchas bog'liq holda ajratib ko'rsatish kerak bo'ladi.

Yoshlarimiz tomonidan o'tmishga, madaniy merosga xurmat, bu eng avvalo, uning yaratuvchisi, rivojlantiruvchisi bo'lgan xalq ommasiga ko'rsatilgan izzat-ikrom, mehr-oqibat demakdir. O'zining o'tmish tarixiga, madaniyatiga, tarixiy merosiga milliy an'alariga katta e'tibor va hurmat bilan qaraydigan xalqning istiqboli porloq bo'ladi. O'tmishimizni qanchalik yaxshi bilsak va e'zozlasak, hozirgi davrni, mustaqilligimiz istiqboli va ahamiyatini chuqur hamda mukammal tushunib, ushbu muqaddas qadriyatimizga tahdid sifatida ko'rinish berayotgan ayrim yot g'oyalarga qarshi yoshlar ongida g'oyaviy immunitetni rivojlantirishning zaruriyigi shunchalik dolzarblashadi.

Yoshlar ongida qat'iy huquqiy e'tiqodlar shakllangan taqdirda huquqiy ongining ijtimoiy turmushga aks ta'siri eng samarali bo'ladi. Yoshlarning huquqiy madaniyat - huquqqa doir bilimlarni shunchaki o'rganib olish emas, balki ulardan huquq-targ'ibotni va qonuniylikni mustahkamlashga ongli suratda yo'naltirilgan amaliy faoliyatda foydalana olishidir. Agar bu bilim va ishonch yoshlarning amaliy faoliyatida yuzaga chiqmasa, u o'likdir va jonsizdir.

Tarixdan ma'lumki, qaysi mamlakatda qabul qilingan qonun-qoidalarga hamma barobar oqilona amal qilsa, o'sha erda davlat mustaxkam bo'lib, el-yurt farovonligi oshadi. Bunga erishish uchun har bir fuqaroda huquqiy madaniyat va bilim shakllangan bo'lmog'i kerak. Huquqiy madaniyatning yuksak darajasiga inson huquqlari va erkinliklarining Konstitutsiyaviy va qonunlarning ustunligi, demokratiyaga asoslanganligi, ijtimoiy adolat, huquqiy axborotlarning xamma uchun ochiqligi, huquqiy ta'lim va tarbiyaning birligi hamda ularga ilmiy-amaliy yondashuv kabi tamoyillarga izchil amal qilingandagina erishiladi.

Yoshlarning huquq va majburiyatga bo'lgan munosabat huquqiy hayotining barcha xodisalarning baholashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yuridik huquq va majburiyatlar orqali ularning madaniyat – qadriyat sifatida huquqqa bo'lgan undagi talablarga nisbatan ruxiy munosabatini ochib beradi. Yuridik huquq va majburiyatlarga bo'lgan sub'yektiv – ruxiy munosabat, ularni huquqiy faoliyati orqali amalga oshirilishi talablari yoshlarning jamiyatdagi huquqiy xodisalarga nisbatan qadriyatlarni baxolashini ochib beribgina qolmay balki madaniyatini faoliyat yurish turish bilan bog'liq tomonlarini aniqlaydi. Huquqiy madaniyatga huquq erkinlik va majburiyatlar orqali yondashib huquqiy madaniyatning yoshlarning huquqiy sohadagi

faoliyatining muhim usullaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Yoshlarning huquqiy madaniyati to'g'risida gap borganda, birinchidan uning o'z xuquq erkinlik va majburiyatlarini bilishi tushunishi va to'g'ri anglashi baholashi uchun ikkinchidan esa ulardan amaliy faoliyatida foydalanishi xaqida so'z yuritish joizdir. Yoshlarning huquqiy madaniyati asosi va o'ziga xos tomonlari quyidagi ko'rinishlarda o'z aksini topdi:

Birinchidan, yoshlarning huquqiy savodxonligi, ya'ni huquqiy bilimlarni o'zlashtirib olish, yuridik ma'lumotga esa bo'lishdir.

Ikkinchidan, yoshlarda qonunlarga bo'lgan chuqur hurmatni shakllantirishdir. Qonunga hurmat bilan yondoshish, bu hurmatni amalda namoyon etishning o'zi huquqiy madaniyatining oliy darajada namoyon bo'lishidir.

Yoshlarda huquqiy javobgarlik va intizom tuyg'usi yuqori darajada shakllangan bo'lishi kerak. Xar bir qilingan ish uchun javob berish kerakligini tushunib yetish kerak, javobgarlik borgan sari mustahkamlanib eng foydali va zaruriy odamga aylanmog'i lozim. Ayniqsa, insonning oila oldidagi ijtimoiy - huquqiy javobgarligi va burchi tuyg'usi bebaxodir. Chunki bu tuyg'ularni qaror topishi avvalo ular tarbiyalangan oilada shakllanadi va kelajakda ishlariga jamiyat, davlat olididagi mas'uliyat, javobgarlik his-tuyg'ularining poydevoriga aylanadi.

XULOSA

Yoshlarni maktab yoshidanoq o'z xaq-huquqlarini tanishini talab qilishga va ayni chog'da o'z burchini ado etishga o'rgatib, kelajakda ongli ravishda vatanparvar va layoqatli barkamol etib tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir. Bugungi bozor munosabatlari sharoitida huquqiy ta'lim-tarbiyaning eng yangi shakl va usullaridan foydalanish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Jalilov, U.Muhammadiyev va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2015, 3-bet.
2. M.Usmonov. O'zbekiston: yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyat – rivojlanish garovi(<https://www.uzembassy.uk/news/1166?language=uz>).
3. Маликов, Б. Қ., & Дехқонбоев, Ш. Б. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ХУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 462-466.
4. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik. 2 tomli. 2-tom. Toshkent, 1998.
5. Рафиқова, Д. К., & Каримова, Г. Й. (2020). Ёшларни ижтимоий фаоллигини оширишда кадриятларнинг аҳамияти. *Перекрёсток Культуры*, 2(1).

6. Тешабоев, М., Каримов, Ў., & Каримова, Г. (2022). Глобаллашув Шароитида Ёшлар Тарбиясига Салбий Таъсир Этувчи Омиллар Ва Уларнинг Хусусиятлари. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 5(1), 382-388.

7. Dadaboeva, J. (2022). THE BASICS OF CIVIL LEGAL REGULATION OF SEPARATION FROM MARRIAGE. *Research Focus*, 1(4), 253-261.

8. Anvarovna, D. J. (2023). HISTORICAL LEGAL BASIS OF ADOPTION STAGES OF DEVELOPMENT. *World Bulletin of Management and Law*, 23, 39-41.

9. Dadaboyeva, J. A., & Mamadaliyeva, M. (2023). ODAM SAVDOSI YOXUD “ZAMONAVIY QULLIK” KA QARSHI KURASHISH MUAMMOLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 807-812.

10. Anvarovna, D. J. (2024). SOME ASPECTS OF FORMS OF PLACEMENT OF CHILDREN LEFT WITHOUT PARENTAL CARE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(06), 393-396.